

**IQTISODIYOT VA DIPLOMATIYA SOHALARIDA GENDER
NOMUTANOSIBLIK: IMKONIYATLAR VA TO'SIQLAR**

Tursunova Sabrina Ulug'bek qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1-kurs
talabasi tursunovasabrina749@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyot va diplomatiya sohalarida gender nomutanosiblik masalasi tizimli tahlil qilinadi. Xususan, ayollarning rahbarlik lavozimlari, qaror qabul qilish jarayonlari va xalqaro muzokaralardagi ishtirok darajasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ayollar va erkaklar o'rtasidagi imkoniyatlar tafovuti, mehnat bozorida turli soha va lavozimlarning disproportional taqsimlanishi kabi omillar o'rganiladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ayollarning faolligini oshirish ahamiyati, gender balansni saqlash iqtisodiyot va diplomatik muvaffaqiyatning muhim omili ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, global maydonda ayollarga berilayotgan imkoniyatlarning bugungi kundagi ahamiyati e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Gender nomutanosiblik, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, diplomatiya, iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье проводится системный анализ проблемы гендерного неравенства в сферах экономики и дипломатии. В частности, рассматривается уровень участия женщин на руководящих должностях, в процессах принятия решений и в международных переговорах. В исследовании изучаются такие факторы, как разрыв в возможностях между женщинами и мужчинами, диспропорциональное распределение различных сфер и должностей на рынке труда. Обосновывается важность повышения активности женщин в достижении целей устойчивого развития, а также тот факт, что сохранение гендерного баланса является важным фактором экономического и дипломатического успеха. Кроме того, признается значимость возможностей, предоставляемых женщинам на современной глобальной арене.

Ключевые слова: гендерное неравенство, Международная организация труда, Организация Объединенных Наций, дипломатия, экономика.

Annotation: This article provides a systematic analysis of the issue of gender inequality in the fields of economy and diplomacy. In particular, it examines the level of women's participation in leadership positions, decision-making processes, and international negotiations. The study explores factors such as the opportunity gap between women and men, and the disproportionate distribution of various sectors and positions in the labor market. The importance of increasing women's activity in achieving sustainable development goals is highlighted, substantiating that maintaining gender balance is a crucial factor for economic and diplomatic success. Additionally, the contemporary significance of opportunities provided to women in the global arena is recognized.

Keywords: *gender inequality, International Labour Organization, United Nations, diplomacy, economy.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda gender tenglik masalasi nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda ayollarning ta‘lim olish darajasi sezilarli darajada oshib, ularning iqtisodiyot va diplomatiya kabi strategik sohalardagi ishtiroki kengayib bormoqda. Ayollar biznes, davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va siyosat kabi yo‘nalishlarda faol qatnashib, muhim qarorlar qabul qilish jarayoniga tobora ko‘proq jalb etilmoqda. Shunga qaramay, ushbu ijodiy o‘zgarishlarga qaramasdan, gender nomutanosiblik muammosi hali ham dolzarbligicha qilmoqda.

Xususan, ayollar yuqori rahbarlik lavozimlariga yetarli darajada vakillikka ega emas, ko‘plab mamlakatlarda ular “shisha shift” (glass ceiling) muammosiga duch keladi. Bundan tashqari, bir xil malaka va tajribaga ega bo‘lishiga qaramay, ayollar ko‘pincha erkaklarga qaraganda kamroq daromad olishadi. Diplomatiya sohasida ham ayollarning elchi yoki yuqori darajadagi diplomat sifatidagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holatlarning asosida ijtimoiy stereotiplar, an’anaviy gender rollari, institutsional to‘siqlar va imkoniyatlarning teng taqsimlanmaganligi kabi omillar yotadi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va nodavlat institutlar tomonidan ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Gender tengligini ta‘minlash orqali nafaqat ayollarning huquqlari himoya qilinadi, balki iqtisodiy o‘sish tezlashadi, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Ushbu maqolada iqtisodiyot va diplomatiya sohasida gender nomutanosiblikning asosiy sabablari, mavjud to‘siqlar, shuningdek ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Iqtisodiyot sohasida gender nomutanosiblik eng ko‘p daromad tafovuti va mehnat bozoridagi tengsizlik orqali namoyon bo‘ladi. Tarixiy jihatdan ham ayollar erkaklarga iqtisodiy qaram bo‘lib kelganligi, ularning iqtisodiy faoliyati cheklanganligi bugungi iqtisodiy tengsizlik uchun asosiy sabablardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, azaldan ayollarning yuqori lavozimlarda ulushi kamligi, ularga nisbatan rahbarlik qobiliyati mavjud emas deb qaralishi ko‘plab sohalarda gender tafovutlarni keltirib chiqardi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bugungi kunga kelib ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ayollar o‘rtacha erkaklarga nisbatan 20 foiz kamroq daromad topadi. Bu ish imkoniyatlari va lavozim cheklanishi bilan bog‘liq.

Rahbar ayollar ulushi statistikasi

Ayollar ulushi



Manba: Jahon banki ma'lumotlar bazasi, "Female share of employment in senior and middle management (%)", 2024. [Havola: <https://genderdata.worldbank.org/en/indicator/sl-emp-smgt-fe-zs>]

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, mehnat bozorida ayollar erkaklarga qaraganda kamroq ulushga ega. Bu farqning asosiy sababi ijtimoiy stereotiplar, oilaviy majburiyatlar va ish sharoitlarining mos kelmasligi bilan izohlaniladi. Qolaversa, biznes sohasida o'zining o'rniga ega bo'lgan ayollar atigi 37 foizni tashkil etadi.

Olingan statistik ma'lumotlar tahlili global miqyosda gender nomutanosiblikning keskin tafovutini ko'rsatadi:

- Yetakchi davlatlar. Eng yuqori ko'rsatkichlar Lotin Amerikasi va orol davlatlarida kuzatilib, Trinidad va Tobago (52,7%), Gonduras (50,8%) hamda Seyshell orollari (50,2%) kabi mamlakatlarda ayollar rahbarlik lavozimlarining yarmini egallagan.
- Rivojlangan davlatlar. AQSh (44,3%) va Buyuk Britaniya (40,9%) kabi iqtisodiyoti kuchli davlatlarda ayollar ishtiroki barqaror (40% atrofida) shakllangan.
- Past ko'rsatkichlar. Eng kuchli gender nomutanosiblik Janubiy Osiyo mintaqasida saqlanib qolmoqda, xususan Afg'oniston (5,9%), Bangladesh (7,2%) va Hindiston (11,9%) kabi davlatlarda ayollar boshqaruvi juda past darajada.

Iqtisodiy rivojlanish har doim ham gender tengligini anglatmaydi. Ba'zi rivojlanayotgan davlatlar (masalan, Belarus 42%) ayollar yetakchiligi bo'yicha ko'plab boy davlatlardan o'zib ketgan.

Diplomatiya sohasida ham gender nomutanosiblik sezilarli darajada mavjud. Ko'plab mamlakatlarda diplomatik xizmatlarda erkaklarning ulushi ayollarnikidan yuqori. Ayollar asosan eng quyi lavozimlarda faoliyat yuritib, yuqori darajadagi rahbarlik va qaror qabul qilish lavozimlariga kamroq tayinlanadi. Masalan, Yevropa tashqi harakatlar xizmatlarida ayollar ulushi 42 foizni, davlat kotibliги va elchilik lavozimlarida 30 foizni tashkil etadi. Ayollarning diplomatiyada o'rni nafaqat vakillik masalasida, balki xalqaro siyosat va barqarorlik uchun ham muhim ahamiyatga ega. BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayollar qatnashgan tinchlik muzokaralarida erishilgan kelishuvlar uzoqroq davom etish ehtimoliga

ega va ularning ishtiroki kelishuvning muvaffaqiyatli yakunlanish darajasini oshiradi. 1992-2019-yillar oralig'ida dunyo tinchlik muzokaralarida ayollar muzokarachilarning 13 foizini, vositachilarning 6 foizini va kelishuvlarni imzolaganlarning 6 foizini tashkil etgan.

So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning jamiyatda o'rni va nufuzini mustahkamlash maqsadida ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar turli siyosat va dasturlarni amalga oshirmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2021–2025 yillarga mo'ljallangan Gender Action Plan (GAP III) tashqi siyosatda gender tengligini ta'minlash, ayollarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi rolini kuchaytirish hamda ayollarga nisbatan zo'rvonlikni kamaytirishga qaratilgan siyosiy choralarni o'z ichiga oladi. Ushbu tashabbuslar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayniqsa SDG 5 – gender tenglikni ta'minlash hamda barcha ayollar va qizlarning imkoniyatini kengaytirish maqsadini qo'llab quvvatlaydi. Bu esa ayollarning iqtisodiy, siyosiy va diplomatik qarorlar qabul qilishda teng ishtirok etilishini ta'minlaydi.

Xulosa

Bugungi kunda ayollarning yuqori lavozimlarda faoliyat yuritishi hamda iqtisodiy va diplomatik jarayonlardagi ishtiroki hali erkaklarga nisbatan past darajada saqlanib qolayotgan bo'lsada, yaratilayotgan keng imkoniyatlar va qo'llab-quvvatlovchi tashabbuslar kelajakda bu tafovutni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy islohotlar, ta'lim imkoniyatlarining kengayishi va gender siyosatining takomillashuvi natijasida ayollar tobora ko'proq yetakchi pozitsiyalarni egallab, jahon miqyosida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda.

Shu bilan birga, ayollarning iqtisodiyot va diplomatiyadagi faol ishtiroki nafaqat gender tengligini ta'minlashga, balki innovatsion rivojlanish, samarali boshqaruv va barqaror iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro munosabatlarda esa ayollarning ishtiroki muvozanatli va inklyuziv qarorlar qabul qilinishiga zamin yaratadi. Natijada, bu jarayonlar global barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda jamiyatda ayollarning rolini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gilman, C.P. (1898). *Women and economics*. Boston: Maynard & Company. Available at:
<https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.p20171065>
2. Savelieva, A. (2024). *The ways to increase the role of women in international economic relations and diplomacy*. Sumy State University. Available at:
<https://essuir.sumdu.edu.ua/handle/123456789/96813>
3. Goldin, C., Kerr, S.P., Olivetti, C. and Barth, E. (2017). *The expanding gender earnings gap*. *American Economic Review*. Available at:
<https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.p20171065>
4. Yevchenko, S. (2025). *Diplomatic gender gap: the path to gender equality in diplomacy*. *EU NEIGHBOURS east*. Available at:

<https://euneighbourseast.eu/young-european-ambassadors/blog/diplomatic-gender-gap-the-path-to-gender-equality-in-diplomacy/>

5. Ismailova, G. (2025). Gender balance policy in European diplomacy. Foreign affairs. Available at:

https://www.researchgate.net/profile/Gulnoza-Ismailova/publication/397299818_Gender_balance_policy_in_European_diplomacy/links/690b4dbca2b691617b69a44c/Gender-balance-policy-in-European-diplomacy.pdf

6. Zafar, H., Naseer, F., Samiullah and Warsi, N.I. (2025). The role of women in diplomacy: challenges and opportunities. International Journal of Social Sciences Bulletin. Available at:

<https://socialsciencesbulletin.com/index.php/IJSSB/article/view/1141>

7. International Labour Organization (2025). Gender equality. Available at: <https://www.ilo.org/topics-and-sectors/gender-equality>

8. International Monetary Fund (2025). Women in Economics. Available at: <https://www.imf.org/en/blogs/articles/2021/08/06/women-in-economics>

9. United Nations (2025). Women in Diplomacy. Available at: <https://www.un.org/en/observances/women-in-diplomacy-day>

10. World Bank (2025). Women, Business and the Law. Available at: <https://wbl.worldbank.org/>